

**MILLIY VA JAHON ADABIYOTIDA ONA OBRAZINING O'ZIGA XOS
TALQINI (CHARLES DICKENS VA SHAROF RASHIDOV ASARLARI ASOSIDA)**

Kadambayevna Nargiza Adamboyeva

Oriental instituti dotsenti

Abduhakimovna Munavvar Turdiyeva

Oriental instituti 1-bosqich magistranti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 14.11.2025

Revised: 15.11.2025

Accepted: 16.11.2025

KALIT SO'ZLAR:

Globallashgan davrda madaniyat va san'atning o'zni beqiyos. glaballashgan davrda o'z madaniyatini asrab qolish har-bir mamlakat uchun juda mushkul bo'lgan vazifa hisoblanadi. Shunga binoan davr yoshlari va kelajak avlodlarimizda adabiyotimiz, san'at va madaniyatimizni bor go'zalligini sharq va g'arb adabiyotini taqqoslagan holda ularni qiyosini va aynan adabiyotimizni real hayotimiz bilan chambarchast bog'liqligini aynan SH. Rashidov va Charles Dickensning romanlarida ifodalab berishni lozim deb topdim. Vaholanki ular ikki davr ijodkorlari bo'lishiga qaramasdan o'z asarlarida ona, ayol timsolini mahorat bilan ifodalaganlarki, ona timsolining madaniy va adabiy manbalardagi ildizlari va realism adabiy yo'nalishida ayol va ona obrazining o'zni va milliy qadriyatlar asosida talqinini bugungi davr yoshlariga yoritib berishni lozim deb topdim. Ularning asarlarida ona timsoliga bberilgan jumllalaridan anglaysizki, ona olamni qutqaruvchi, ko'ngillarga taskin beruvchi dunyoga ezgulik tuyg'ularini taratuvchi zotdir. Sharof Rashidov ijodi o'zbek

adabiyotida insonparvarlik, vatanparvarlik va manaviyat haqida yuksak badiiy darajada ifodalagani bilan alohida o'rin tutadi. Charles Dickens ingliz jamiyatidagi ijtimoiy muammolarni ayniqsa sanoatlashuv davrida yuzaga kelgan axloqiy inqirozni badiiy tarzda yoritgan yozuvchidir.

Bu ikki yozuvchi o'z davrining buyuk allomalaridan desak mubolag'a bo'lmaydi. "Ona" va "Hart Times" asarlarida ona obrazi shaq va g'arb adabiyotida inson psixologiyasining asosiy timsoli sifatida talqin qilingan.

Sharq adabiyotida ona- sabr, mehr, fidoiyluk timsoli sifatida ko'rinsa :

G'arb adabiyotida esa insoniylik, axloqiy uyg'onish ramzi sifatida tasvirlangan. Ruhiy jihatdan ona insonning ilk muhabbati va ishonchi manbai bo'lib, badiiy adabiyotda onaning harakatlari, kechinmalari orqali insoniy xislatlari yoritilgan. Ona asarida ona milliy qadriyatlar, sabr- toqat, fidoiyluk, vatanga muhabbatli zot sifatida tasvirlangan va o'zbek ayolining hayoti farzandlari bilan bo'lgan munosabati, fidoiyligi, mehnatsevarligini tasvirlaydi. Ona xalqi, farzandlari uchun jonini fido qiladigan va ular uchun umr guzaronlik qiladigan, jamiyatning tayanchi sifatida gavdalanadi. Ona farzandi uchun hayotidagi barcha to'siqlarni yengadigan, azob-uqubatlarga dosh beradigan va farzandini go'zal taqdiri uchun yashaydigan zot. Rashidov ona obrazini millat ruhining timsoli sifatida yaratgan. Asardagi ona obrazidagi har-bir harakati jamiyatning madaniy va ma'naviy qadriyatlariga, mentaletiga mos keladi: sabr, mehr, fidoiyluk nafaqat farzand balki millatni tarbiyalash va vatan tuyg'usini his qilish uni sevish.

Charles Dickens "Hard Times" romanida ona timsoli sifatida sanoatlashgan Angliyada ijtimoiy adolatsizlik ko'rinishida ona siymosi orqali insoniylik va axloqiy qadriyatlar ifodalangan. Asardagi onalik obrazlari Mrs. Grandgrind-maktab direktori faqat faktlar tamoyiliga asoslangan ta'lim tizimini targ'ib qiladi. Bu insiniyatni his-tuyg'udan, mehrdan, san'at va axloqdan ajratadi. Sovuq, his- tuyg'ularsiz ona, axloqiy krizis timsoli etib tasvirlanadi. Sissy Jupe esa – ruhiy onalik timsoli, mehr va insoniylikni qadrllovchi qahramon. Mrs. Sporsit- soxta onalik timsoli sifatida tasvirlangan.

Onalik mehri bilan uyg'unlashgan holda sanoatlashgan jamiyatdagi insoniylikni targ'ib qiladi. Dickens nazarida ona biologic emas, balki ma'naviy timsoldir.

"Hard Times" asarida "There is something in the nature of children that they cannot be made to learn what they are not interested in, and interest is fed by affection and sympathy". Ya'nikim; "Bolalarning tabiati shundayki, ular qiziqmagan narsani o'rganishga majburlanishi mumkin emas; qiziqish esa mehr va hamdardlik bilan uyg'onadi." Bunga izoh

keltirar ekanman o'qituvchi sifatida o'zinga ma'naviy ozuqa oldim desam adashmagan bo'laman. Chunki bu jumalarda Ona va tarbiyachining mehr-muhabbati bolaning ruhiy va ma'naviy rivojida hal qiluvchi omil ekanini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarlari haqida gapirar ekanman "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalo farzandlarimizning qanday inson bo'lib kamol topishiga, ularning ma'naviy dunyosiga, hayotga va Vatanga bo'lgan munosabatiga bo'liq".

Buning zamerida farzandlarning oqilona tarbiyasini eng ustuvor maqsad deb qo'yganlar va bunda biz bilamizki bevosita onalarning roli katta. Onaning beradigan tarbiyasi vatan kelajagiga, ravnaqiga daxildorligini ko'rishimiz mumkin. Yana bir jumalalarida "Ona mehri hech bir narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. U insonni ezgulikka, sabr va sadoqatga o'rgatadi." Yana bevosita onaning naqadar buyukligini ifodalab o'tganlar.

Bu ikki asarniqiyoslar ekanmiz Rashidov" Ona" romanida millat ruhini tarbiyalovchi, sharq milliy qadriyatlarga asoslangan samimiy xalqona asar bo'lsa, Dickensning "Hard Times" romani g'arb sanoatlashgan jamiyatda insoniylikni tiklash, ruhiy ma'naviy realistic dramatik asar hisoblanadi.

Shu asnoda O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasidan "Gilam paypoq" qissasida "Onam meni shosha-pisha ko'rpachaga o'radi. Bir mahal onamning qo'lida ketayotganim esimda bor. Guppillab qor yog'ayotganini his etib turardim-u, biroq yuzimga qor tushmas edi. Onamning issiq nafasi urilib turar, u sirg'anib-sirg'anib borar, og'ir hansirar edi." Degan jumalalaridan anglaymizki; ona qanchalik farzandi uchun fidoiy ekanligi, qorli havoda o'z sog'lig'ini unutib farzandi uchun kuyib -yonishini go'zal tasvirlab bergan. Qolaversa boshqa qissalarida ham ona farzandlariga mehnat sevarlik borasida go'zal namuna siymosini gavdalandirgan.

Xulosa qilib aytish mumkimki, "ona asari Sh.Rashidov ijodining cho'qqilaridan biri bo'lib, ona timsoli milliy va ma'naviy g'oyalar bilan boyitilgan bo'lib, o'quvchida insoniylik va vatanparvarlik ruhini uyg'otadi.

"Hard Times" asari Ch. Dickensning ijtimoiy va falsafiy qarashlarini aks ettiradi, u orqali o'quvchi insoniylik, mehr va adolatning jamiyatda muhimligini anglaydi va salbiy obrazlari orqali insoniy qadriyatlar va hissiylikdan mahrum jamiyatning salbiy oqibatlarini ochib beradi.

Qanday jamiyatda yashashimizdan qat'iy nazar mehr-muhabbat, or- nomus, rahm-shavfqat, insoniylik xislatlari bilan farzandlarimizni tarbiyalasak ularga vatan,ona kabi tushunchalarni singdirib ,vatan ravnaqi ,kelajagi uchun hissa qo'shishimiz lozim deb bilaman zero, dunyo qarashi keng shukrona hissi sabr hissi bor farzandlar va baxtli onalar kelajagimiz poydevoridir!

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Sh.Rashidov "Ona" – Toshkent; G'afur G'ulom nashriyoti; 1960
- 2.CH.Dickens "Hard Times" – London; Bradbury & Evans; 1854
- 3.I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch"-Toshkent; 2008
- 4.O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari"-Toshkent; 2018
- 5.Cyberleninka/ Cyberleninka.ru
- 6.UzPedia yuksak ma'naviyat yengilmas kuch asari tahlili./uzpedia.uz